O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







2026-yil
16-oktabr

IKKI ESHIK ORASI” ROMANIDAGI MUROJAAT BIRLIKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI VA TARJIMA MUAMMOLARI

LINGUOCULTURAL FEATURES AND TRANSLATION PROBLEMS OF ADDRESS TERMS IN THE NOVEL “BETWEEN TWO DOORS”

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/IWZA4013

Sh.G.Musurmankova
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti,
Abdullayeva Dinora Raimjon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
abdullayevadinora977@gmail.com

Annotation. *This article discusses address terms in Uzbek and English, their linguocultural features, and their role in communication. It also analyzes kinship terms used in the novel “Between Two Doors” and some differences in their translation into English. The article shows that address terms can express respect, closeness, and national and cultural characteristics.*
Keywords: *address terms, linguoculture, translation, Uzbek language, English language, between_the_doors, brother, sister, father, mother.*

Til insonlar o‘rtasidagi muloqotni ta’minlovchi asosiy vosita bo‘lib, unda murojaat birliklari alohida ahamiyatga ega. Murojaat shakllari orqali insonlar o‘rtasidagi hurmat, yaqinlik, yosh, ijtimoiy mavqe va munosabatlar ifodalanadi. Ayniqsa, o‘zbek tilida qarindoshlik terminlarining murojaat sifatida qo‘llanishi o‘ziga xos lingvomadaniy xususiyatlardan biridir. Masalan, aka, opa, amaki, xola kabi so‘zlar faqat qarindoshlikni emas, balki begona kishilarga nisbatan hurmat va yaqinlikni ham ifodalashi mumkin.

Zamonaviy kommunikatsiya vositalari, xususan, ijtimoiy tarmoqlar va internet tilida murojaat kategoriyasining yangi shakllari paydo bo‘layotgani kuzatilmoqda. Masalan, qisqartirilgan murojaatlar, emojilar bilan ifodalangan murojaat shakllari yoki umumlashtirilgan murojaatlar (“hamma”, “do‘stlar”) keng qo‘llanilmoqda. Bu esa murojaat kategoriyasining dinamik rivojlanayotganligini ko‘rsatadi. [Nomozov, 2026: 428]

Bundan tashqari, murojaat birliklari rasmiy va norasmiy bo‘ladi:

Rasmiy muloqot birliklari – honim, janob, hurmatli ustoz, hurmatli ... , muhtaram rais, muhtaram... .

Norasmiy muloqot birliklari – do‘st, aka, opa, oyi, dada, dugon, jo‘ra va hokazo.

O‘zbek va ingliz tillarida nutqiy muloqotda kommunikantlar o‘rtasidagi hurmat kategoriyasini ifodalovchi “sen” va “siz” murojaat shakllari mavjud. Ushbu o‘zbek tilidagi murojaat shakllarini Q. Sh. Qaxarov “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” orqali quyidagicha ta’riflaydi: *Sen* – kishilik olmoshi, ikkinchi shaxs, birlik. O‘zidan kichik yoki yaqin kishiga murojaat qilishda ishlatiladi. Ko‘pchilikka murojaat qilinganda dag‘allik yoki mensimaslikni bildirishi mumkin. *Siz* – kishilik olmoshi, ikkinchi shaxs, ko‘plik. Ko‘pchilikka murojaat qilishda ishlatiladi. O‘zidan katta kishiga va, umuman, har qanday shaxsga nisbatan hurmatni bildiradi.[Alimova, 33]

Lingvomadaniy so‘zlar har bir xalq tilida mavjud bo‘lib, ular shu xalqning qadriyatlari, urf-odatlari va madaniy xususiyatlari haqida ma’lumot beradi. Ular tilda muhim ahamiyat kasb etib, bir qator muhim vazifalarni bajaradi. Ularning tildagi asosiy o‘rnini quyidagicha izohlash mumkin:

1.Madaniy xotirani saqlash.

2.Milliy identifikatsiya.

3.Kommunikativ funksiya.

4.Til boyligini oshirish. [Keldiyorova, 126]

Metodologiyaning muhim jihatlaridan yana biri – qarindoshlik terminlarini faqat nominativ birlik sifatida emas, balki pragmatik marker sifatida ko‘rishdir. Chunki “opa”, “aka”, “oyi”, “dada”, “kelin”, “xola”, “amaki”, “otaxon” kabi birliklar muloqot jarayonida qarindoshlik munosabatini bildirish bilan birga, mehr, hurmat, paternalizm, ijtimoiy masofa yoki ijtimoiy nazorat kabi ma’nolarni ham ifodalashi mumkin. [Zaripboyeva, 46]

O‘zbek tilidagi murojaat birliklari boshqa tillarga tarjima qilinayotganda ayrim lingvomadaniy muammolarni yuzaga keltiradi. Chunki o‘zbek tilida qarindoshlikni bildiruvchi murojaat birliklari ingliz tilidagiga nisbatan ancha farqlanadi. Masalan, ingliz tilida “sister” so‘zi ham “opa”, ham “singil” ma’nosida qo‘llanadi, “brother” esa “aka” va “uka” ma’nolarini bildiradi. O‘zbek tilida esa bu birliklar alohida nomlanib, insonning yoshi va qarindoshlikdagi o‘rnini aniq ifodalaydi. Bundan tashqari, o‘zbeklar “aka”, “opa”, “amaki”, “xola” kabi so‘zlarni faqat tug‘ishgan qarindoshlariga nisbatan emas, balki qo‘shni, tanish yoki yoshi katta kishilarga hurmat yuzasidan ham ishlatadilar. Bunday holatda

murojaat birligi qarindoshlikni emas, balki hurmat, yaqinlik va odobni ifodalaydi. Shu sababli bunday so‘zlarni boshqa tilga faqat lug‘aviy ma’nosi asosida tarjima qilish asl matndagi milliy-madaniy mazmunning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Demak, “Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarini tarjima qilishda ularning nafaqat lug‘aviy ma’nosi, balki qahramonlar o‘rtasidagi munosabat va o‘zbek xalqiga xos muloqot madaniyati ham hisobga olinishi lozim.

Hozir biz “Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarini ko‘rib chiqamiz va tepada aytib o‘tilgan muammolar bilan tanishamiz.

“BROTHER/BRO – AKA YOKI UKA” MA’NOSIDA.

1.Nasibaga yalingandir: “Akangni chaqirtir, ko‘rib qolay”, degandir... (15-bet)[1]

Nasiba: “Call your brother, I should see ...” maybe she said it. (13-page)[2]

2.- Voy ukam, vahima qilmang. Bu savdo har xotinning boshida bor. (165-bet)

“Oh, brother, don't panic”. This trade is at the head of every woman. (165-page)

3.Betonchi Safar aka ayiqdek lapanglab vagoncha tomonga birinchi bo‘lib yurdi. Ketidan payvandchimiz Ikrom aka. (6-bet)

Concrete worker, Safar bro, was the first to walk like a bear towards the wagon.

Then welder Ikrom bro. (4-page)

Demak, 1 va 2- gaplardagi aka-uka so‘zlari tug‘ishgan aka-ukalar ma’nosida kelmoqda, ammo 3-gapdagi aka so‘zi o‘zidan katta begona kishilarni hurmat qilish ma’nosida ishlatilmoqda. Ingliz tilida esa 1 va 2-gaplarda aka-uka so‘zlari mos ravishda “brother” shaklida tarjima qilingan. 3-gapdagi “aka” esa “bro” shaklida berilgan bo‘lib, ingliz tilida bu so‘z norasmiy murojaat shakli hisoblanadi. Biroq o‘zbek tilidagi “aka”ning yoshi katta, begona kishiga hurmat ifodalovchi ma’nosi ingliz tilida to‘liq saqlanmagan. “Aka” va “uka” o‘zbek tilida yosh jihatidan farqlansa-da, ingliz tilida ikkalasi ham umumiy “brother” so‘zi orqali ifodalanadi. Shu sababli tarjimada o‘zbek tilidagi yosh va hurmatga oid farq to‘liq aks etmagan.

[1]Hoshimov O‘. “Ikki eshik orasi”. “Adabiyot uchqunlari”. –Toshkent, 2018.

[2]http://rasul.template.uz/sites/default/files/between_the_doors_utkir_hashimov.pdf (1.10.2026 20:50)

“SISTER – OPA YOKI SINGIL” MA’NOSIDA.

1.Bir marta Robi opamgayam daf qibdi. Opam zo‘rg‘a qochib qutulgan emish. (20-bet)

Once Robi repelled my sister as well. My sister barely escaped.(17-page)

2.Qorong‘ida ayanchli iljaydi. – Singlingizga... – Singlimmas! - Kimsan akam hayqirib yubordi. (76-bet)

“to you sister ...” “she is not my sister!”. (79-page)

3.Ra’no opa bilan Shomurod tog‘amning yulduzi yulduziga to‘g‘ri kelgan ekan. (82-bet)

Sister Ra’no and uncle Shamurat are the same in character and interests. (85-page)

Demak, barcha gaplardagi opa-singil so‘zlari tug‘ishgan, yaqin qarindoshlarga nisbatan ishlatilmoqda. Ingliz tilida bu murojaat birliklari “sister” shaklida tarjima qilingan. “Opa” va “singil” o‘zbek tilida yosh jihatidan farqlansa-da, ingliz tilida ikkalasi ham umumiy “sister” so‘zi orqali ifodalanadi. Shu sababli tarjimada o‘zbek tilidagi yosh va hurmatga oid farq to‘liq aks etmagan.

“UNCLE – AMAKI YOKI TOG‘A” MA’NOSIDA.

1.Ko‘chadan ketaversangiz, eng avval “Tuya amakining uyi keladi. (17-bet)

If you leave the street, the first thing that comes is Uncle “Camel” house. (14-page)

2.Ra’no opa bilan Shomurod tog‘amning yulduzi yulduziga to‘g‘ri kelgan ekan. (82-bet)

Sister Ra’no and uncle Shamurat are the same in character and interests. (85-page)

Demak, 1 gapdagi amaki so‘zi dadasining akasi yoki ukasi ma’nosida kelmagan va 2-gapdagi tog‘a so‘zi onasining akasi yoki ukasi ma’nosida ishlatilmoqda. Ingliz tilida “amaki” va “tog‘a” so‘zlari alohida farqlanmaydi, ikkalasi ham “uncle” so‘zi orqali ifodalanadi. Shuning uchun inglizcha tarjimada ularning ota tomoni yoki ona tomoni qarindoshligini bildiruvchi farq yo‘qolgan.

“AUNT – XOLA YOKI AMMA” MA’NOSIDA.

1.E, “Qora ammam”ning bostirmasi baland ekanku! (25-bet)

Oh, “Black Aunt’s” roof is too high! (23-page)

2.– Bor, qizim! Xolposh xolangga obor. (65-bet)

- Go, my daughter! Go to your aunt Khalpash. (67-page)

Demak, 1 gapdagi amma so‘zi dadasining opasi yoki singlisi ma’nosida kelgan va 2-gapdagi xola so‘zi o‘zidan katta tanish ayolni hurmat qilish

ma’nosida ishlatilmoqda. Ingliz tilida “amma” va “xola” so‘zlari ham alohida farqlanmaydi, ikkalasi uchun ham “aunt” so‘zi ishlatiladi. Shu bois tarjimada ularning qarindoshlik jihatdan farqi hamda “xola”ning hurmat ifodalovchi murojaat ma’nosi to‘liq saqlanmagan.

“GRANDDAD/GRANDFATHER – BOBO YOKI BUVA GRANDMUM/GRANDMOTHER - BUVI” MA’NOSIDA.

1.Taniyman. Oqsoqol buva bilan biznikiga ko‘p kelgan. (58-bet)

To us with the elder grandfather came a lot. (60-page)

2.Bobom xi-xilab kuldi. (51-bet)

My grandfather laughed. (54-page)

3.– Yo buvimning chorvog‘ida ishladimmi? Topib bergin endi, qiladigan yumishimni! (9-bet)

Did I work ”on my grandmothers farm". You could find out what I do! (4-page)

Demak, 1-gapdagi buva so‘zi dadasining yoki onasining dadasi ma’nosida kelmagan va 2 va 3-gaplardagi bobo va buvi so‘zlari dadasining yoki onasining dadasi va onasi ma’nosida ishlatilmoqda. Ingliz tilida “bobo” va “buva” odatda “grandfather”, “buvi” esa “grandmother” shaklida ifodalanadi. O‘zbek tilidagi “bobo” va “buva” o‘rtasidagi ayrim ma’no farqlari ingliz tilida alohida so‘zlar bilan ifodalanmaydi.

FATHER – DADA/OTA, MOTHER -OYI/ONA MA’NOSIDA.

1.Chol bir dadamga qarab qo‘ydi-da, arava ichida yotgan qamchini oldi. (45-bet)

The old man glanced at my father and picked up the whip lying in the carriage. (40-page)

2.– Kiring, - dedi u yupqa lablari burilibroq. – Oyim uydalar! (66-bet)

“Come in”, he said turning his thin lips. - My mother is at home! (68-page)

3.“Onang vafot etdi. Juma kuni chiqaramiz”. (14-bet)

“Your mother died. We will bury her on Friday”. (11-page)

Shuningdek, dada/ota va oyi/ona so‘zlari boshqa ma’noda qo‘llanilmaydi. Ingliz tilida “dada/ota” so‘zlari “father”, “oyi/ona” so‘zlari esa “mother” shaklida tarjima qilingan. “Father” va “mother” ingliz tilida ota-onani bildiruvchi asosiy qarindoshlik terminlari hisoblanadi. O‘zbek tilidagi “dada” va “ota”, “oyi” va “ona” shakllari orasidagi uslubiy va murojaatga oid farqlar esa ingliz tilida bitta umumiy termin orqali beriladi.

Tepadagi misollardan shuni ko‘rish mumkinki, o‘zbek tilida ko‘p ma’noda qo‘llaniladigan murojaat so‘zlari ingliz tilida faqat bir ma’noda qo‘llanilar ekan.

Ayrim badiiy epizodlarda qarindoshlik termini muloqotdagi ziddiyatni yumshatish uchun qalqon sifatida qo‘llanadi. Personaj jahlini to‘g‘ridan to‘g‘ri namoyon qilmay, suhbatdoshga “aka”, “opa”, “oyi” yoki “bolam” kabi birliklar bilan murojaat qilib, nutqni tashqi tomondan odobli saqlab qoladi. Biroq matn konteksti va intonatsiyasi bu yumshoqlik ortida tanbeh, e’tiroz yoki bosim borligini bildirib turadi. Bu hodisa pragmatik ikki qatlamlilikni yuzaga keltiradi va genderga oid odob me’yorlari qanday ishlashini yanada ravshan ko‘rsatadi. [Zaripova, 49]

Xulosa qilib aytganda, murojaat birliklari har bir tilning milliy va madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim vositalardan biridir. O‘zbek tilida aka, opa, amaki, xola, bobo, buva kabi qarindoshlik terminlari o‘z ma’nosidan tashqari, hurmat, yaqinlik va samimiylikni ham ifodalashi mumkin. Ingliz tilida esa bunday birliklarning ma’nosi ko‘pincha umumiyroq shaklda ifodalanadi. “Ikki eshik orasi” romanidagi misollarni tahlil qilish orqali murojaat birliklarini tarjima qilishda faqat so‘zning lug‘aviy ma’nosiga emas, balki uning lingvomadaniy mazmuniga ham e’tibor berish zarurligi ko‘rindi. Murojaat birliklarini to‘g‘ri anglash va tarjima qilish asarning milliy ruhini saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Aliqulova M.Sh. O‘zbek va ingliz tillarida murojaat shakllari. Olmazor tuman ixtisoslashtirilgan maktab o‘qituvchisi. www.uzresearchers.com

2. Keldiyorova F.A. Lingvomadaniy so‘zlarning tildagi o‘rni va qo‘llanishi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti. Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti talabasi farangizkeldiyorova911@gmail.com. JMEA Journal of Modern Educational Achievements Volume 5, 2024

3. Nomozov A.M. Murojaat kategoriyasining lingvistik talqinlari. Samargand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi +998946189290 abduaziznomozov/990@gmail.com. 16-To‘plam 1-son Aprel, 2026

4. Ro‘zmatova N.O. Murojaat birliklarining lisoniy maqomi. Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti) nargizarozmatovandpi@gmail.com DOI https://doi.org/10.5281/zenodo.15079956

5. Zaripboyeva N.M. Badiiy diskursda murojaat shakllari, mulozamat birliklari va qarindoshlik nomlarining gender-pragmatik xususiyatlari Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti. Ilmiy rahbar: Akbar R.Y, f.f.f.d. (PhD), dotsent E-mail: Laylo-74@mail.ru ORCID: 0009-0003-2740-9500

6. Hoshimov O‘. “Ikki eshik orasi”. “Adabiyot uchqunlari”. –Toshkent, 2018.

7.http://rasul.template.uz/sites/default/files/between_the_doors_utkir_hashimov.pdf

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		
Sirojiddinov Sh.S.	O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati	**6**
I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
Xolmanova Z.	O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni	**9**
Abdushukurov B.	Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi	**16**
Xudoyberdiyev J.	Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari	**30**
Abdurahmanova M.	Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda	**45**
Xolmurodova M.	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar	**51**
O‘razova I.	Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida)	**56**
Maxkamova D.	O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	**60**

	terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi	
Oripova M.	Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi	**66**
Muratova N.	Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari	**72**
Abdullayeva G.	Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili	**78**
Xayrullayeva R.	Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi	**86**
Jumaniyozova Ch.	Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi	**90**
Abduvaliyeva K.	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili	**95**
Mullaboyeva Sh.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi	**107**
Mamadoliyeva M.	Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida)	**115**
Mamarasulova M.	O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari	**130**
Siddiqova N.	O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi,	**132**

	variantlanishi va lingvopoetik vazifalari	
Yusupova A.	Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari	**144**
O‘ralova N.	O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni	**150**
Maxmudova M.	Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar	**158**
Nurmatova S.	O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari	**168**
Keldiyorova Z.	O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi	**174**
Aliqulova Z.	Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari	**178**
Jurayeva Sh.	Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi	**183**
Karimova U.	Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili	**188**
II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI		
Shamsiyeva M.	Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari	**194**

Jo‘rayeva M.	Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati	**201**
III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI		
Ashirboyev S.	Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi	**205**
Farhad Rahimi	Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk	**210**
Xakimova M.	O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari	**232**
Abbozov O.	So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari	**238**
Komilova G.	O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi	**245**
Xomidova M.	Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari	**253**
Həsənzadə Səmra	Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda)	**261**
Davronova Z.	Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)	**272**

Tursinbayeva Sh.	Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari	**276**
Bekmuradova I.	O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi	**283**
Imomova I.	Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari	**291**
Turgunboeva D.	Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor	**297**
Amrullayeva M.	O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari	**305**
Abdug‘afurova A.	Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida	**312**
Muzaffarova Z.	Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari	**322**
Jumayeva M.	Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili	**327**
Xolmo‘minova H.	Frazemalarning lingvomadaniy tahlili	**333**
IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA		

Xusanova N.	Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish	**337**
Mamirova X.	Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri	**344**
Arolova N.	Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik	**351**
Mirnosirova D.	Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini	**356**
Nurboboyeva R.	Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni	**363**
Keldiboyeva M.	O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli	**369**
V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA		
Mustafa Said Arslan	Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler	**378**
Kalanova D.	O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi	**389**

Muhammadiyeva D.	Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari	**400**
Abbasova Ş.	Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri	**411**
Qarshiyev K.	Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)	**418**
Rahimova Z.	Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati	**428**
Bozorova S.	Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir	**433**
Axmedova N.	O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi	**442**
Davlatova R.	Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar	**448**
Turdiyeva R.	Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida)	**462**
Ataniyazova S.	O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari	**466**
Sayfiyeva K.	O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson	**472**

	konseptining kognitiv metaforik modellari	
Tillayeva O.	O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni	**485**
Musurmankova Sh., **Abdullayeva D.**	“Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari	**495**
Abdullayeva M.	Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	**502**
VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI		
Abjalova M.	O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati	**513**
Elova D.	O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari	**524**
Kasimova Z.	O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari	**534**
Nurullayeva O.	Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari	**542**
Musulmonova K.	Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	**550**

Umarova Sh.	Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari	**556**
Akramdjanova M.	Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni	**564**
Buronova R.	Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi	**570**
Shodmonaliyeva Y.	Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari	**576**
Rayimjonova M.	Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari	**591**
VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR		
Mirzəli Məleykə	Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında)	**595**
Iskandarova G.	O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish	**603**
VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI		
Темирова Б., **Темирова М.**	Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу	**610**

Nazarov Q.	O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	**620**
IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI		
Berdak Yusuf	O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari	**626**
Qurbonova M.	Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini	**632**
Umurzoqova M.	Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari	**640**
Mirzaali Malika	O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı	**646**
Məmmədova A.	Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi	**661**
Tuxtasinova M.	L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili	**670**
Abdullayeva S.	So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları	**681**
Xasanova G.	Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari	**688**

Rajabov N.	O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti	**695**
Mirzayeva G.	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari	**699**
Arislanova M.	She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida)	**706**
Muhammadiyeva M.	“Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili	**717**
Abdullayev G‘.	Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari	**722**
Tursunova S.	Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari	**726**
Turobova N.	Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari	**737**
Utegenova O‘.	O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi	**744**
Komilova G.	Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari	**749**
Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.	O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi	**759**

Axmedova M.	Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar	**768**
Komilova Sh.	Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar	**774**
Suyunova D.	“Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil	**780**
Maqsudaliyeva Y.	Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot	**786**
Abdurasulova D.	O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi	**792**
Majidova M.	Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi	**797**
Abdullayeva I.	Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili	**802**
X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI		
Saydaliyeva M.	Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida	**809**
Otaxonova S.	Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari	**813**